

## TOLERANTLIK XUSUSIYATINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK TAVSIFI

G.N.Utamuradova

*Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib, Shaxs tolerantlik xususiyatining ijtimoiy-psixologik asoslariga bag'ishlangan ilmiy nazariy adabiyotlar tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Shaxs, tolerantlik, tafakkur, ta'lim-tarbiya, sabr-toqat, turmush tarzi, xulq-atvori, odat, his-tuyg'u, fikr-mulohaza, kreativlik.*

Insoniyat yaralibdiki, tinch, baxtli, saodatli yashashga intiladi. Lekin bu intilish ochko'zlik, hasad, hudbinlik kabi illatlar tufayli ba'zilarga orzuligicha qolib kelmoqda. Turli urush va janjallar oqibatida esa inson ana shunday baxtdan bebahra qolmoqda. Bo'lib o'tayotgan to'qnashuvlarning asosiy sababi hudud talashish, boylik orttirish uchun bo'lsa, yana aksarining sababi diniy kelishmovchiliklardir. Ana shunday mojarolarning oldini olish uchun esa insoniyat tolerantliklik g'oyasi ostida birlashishi zarur.

Taraqqiyotning zamonaviy bosqichida tolerantlik xissini rivojlantirish barcha soha uchun bosh maqsadlardan biriga aylanib bormoqda. Aynan shuning uchun xam tolerantlik masalasi so'nggi yillarda psixologiya va pedagogika fanlari doiralarida dolzarb muammo sifatida tadqiqotlar obyektiga aylangan.

Tolerantlik (lot. tolerantia — sabrtoqat) , tolerantliklik — o'zgalarning turmush tarzi, xulqatvori, odatlari, histuyg'ulari, fikr mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish xisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev milliy va diniy tolerantliklik g'oyasini yuksak ma'naviy qadriyat sifatida e'tirof etib, "Tolerantliklik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'z isbotini topdi", deb ta'kidlaydilar.

Hozirgi dunyoda Tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o'zaro bog'liklik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko'chib yurishi kabilardir. jamiyatda Tolerantlik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi.

Tolerantliklik tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaklashtirihdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog'i lozim. Bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Ayniqsa, axloqiy-ma'naviy mavzulardagi muammolarni hal qilishda bahslashuvchilarning yetuklik darajalari, katta ahamiyatga egadir. Axloqiy- ma'naviy masalalar yuzasidan munozarani tashkil etuvchi shaxsga alohida talablar qo'yilishini ta'kidlash kerak. Chunki u bahslashuvchilarga hech qanday tazyiq ko'rsatmasligi, har bir shaxsning erkin fikr bayon etishiga yo'l qo'ygan holda ularning fikrlarini tamoman zidlashib ketishiga yo'l qo'ymasligi, munozaradan kelib chiqadigan xulosani va qarorni guruhning o'ziga havola qilish lozimligini unutmasligi zarur. Bu usul uzluksiz ta'lim tizimida, mahalla qo'mitalari ish faoliyatida, turli maslahat shohobchalari, o'spirinlar tarbiyasi borasida keng qo'llanishi mumkin.

Mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda trening mashg'ulotlarini ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo'llashda bevosita faollikni oshirishga qaratilgan pedagogning kreativlik faoliyatini shakllantirishga qaratilgan usullardan biri e'tirof etishimiz mumkin. Trening mashg'ulotlari ham talabalarni faollikka chorlaydi, masalan, darsning boshlanishida, zerikish holatlarida, diqqatni to'plashda, qo'qqisdan fikr yuritish kabi faoliyatga undovchi qisqa muddatli (3-5daqiqalik) trening o'yinlardan foydanish mumkin. (Keyingi sahifalarda qisqacha dastur keltirilgan).

Mavzu yuzasidan muloqot treninggi mashg'ulotiga e'tibor qaratilganda bu ko'proq muammoli ma'ruza mashg'ulotlarida o'tkaziladi. Buning uchun talabalarga oldindan mavzuga oid materiallar tarqatilib, mashg'ulotning borishi haqida tushunchalar beriladi.

Seminar mashg'ulotlarida esa mavzu rejasi bo'yicha umumiy va kichik guruhlarda ishlash tartibi bilan olib boriladi. Har bir mashg'ulotni o'tkazish uchun asosiy qoidalar qabul qilinadi. Darsni muloqot treninggi asosida tashkil qiladigan o'qituvchi treningning maqsadini anglagan bo'lishi lozim.

Trening mashg'ulotida shaxsning rivojlanishi uchun umumiy maqsad qatori yana bir nechta quyidagi maqsadlar ham mavjud:

A) trening qatnashchilarining bir-biriga ijtimoiy-psixologik jihatdan mosligiga e'tiborini qaratish, ularni atrofidaqilar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlash.

B) trening qatnashchilarini faol ijtimoiy pozitsiyalarini shakllantirish atrofidaqilar va o'zining qarashlarini sezilarli darajada o'zgartirishlariga erishtira olishdan iboratdir;

Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-psixologik trening muhim ahamiyatga ega bo'lib, darsda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabat, darsni o'zlashtirish, fikr yuritish, bilimga bo'lgan qiziqishi va shaxsning faolligini oshiradi. Trening o'quvchining o'zlashtirishini yaxshilaydi.

Bilish jarayonini mukammallashtiradi, o'qituvchi bilan o'quvchining muomala jarayonida muammoli vaziyatlarni yechishni yengilashtiradi hamda o'zaro munosabatlarning yaxshilanishiga olib keladi. Uni o'tkazish orqali shaxslarning bir-birini tushunish, muomala madaniyatini oshirish, ichki muammolarni hal etish imkoniyati tug'iladi.

Psixologik treningni muvaffaqiyatli o'tishi o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining faol harakatlarini talab etadi. Natijada ishtirokchilar o'zining bilimi, salbiy yoki ijobiy emotsiyalarni qabul qilishga tayyorligi va o'z navbatida psixologik himoya va xulq-atvorni shakllantirib borish zarurligini tushunadi. Shuningdek, mashg'ulotlarni mazmunli o'tkazish darsda o'qituvchi va o'quvchi qarashlarini tenglashtiradi.

Mashg'ulotning maqsadi va vazifasiga asoslanib murakkablashtirish yoki soddalashtirish mumkin. Tuzilishiga ko'ra, roli o'yinlar mazmuni, munozarali, bahslashuvni kiritish mumkin.

Trening mashg'uloti jarayonida ma'lum qoidalarga rioya qilinadi.

- bir biriga samimiylik va hayrihoxlik;
- bir- biriga ishonish;
- qatnashuvchining faoliyatiga va muloqot usullariga baho berish;
- o'z taassurotlarini treningda ya'ni boshqaruvchiga ma'lum qila olishi;
- topshiriqlarni bajarishda faqat ijodiy farazga mo'ljal bo'lishi;
- jismoniy nuqsonlarga e'tibor bermaslik;
- mashg'ulot jarayonida hech kimga hech qanday maslahat bermaslik;
- albatta "bu yerda va hozir" degan shartni bajarishi, ya'ni trening paytida ro'y bergan hodisa yoki narsa tashqariga chiqmasligi zarur;
- qatnashuvchilar guruhlarining barcha a'zolarini roziligi bilan ishtirok etishlari kerak bo'ladi. Mashg'ulot jarayonida ro'y berib turadigan qiyinchiliklarni nazarda tutish zarur bo'ladi .

Ijtimoiy psixologik trening turli formalarda, shakl va modellarda o'tkazilishi mumkin. Yuqorida aytilganidek, ularning orasida insonning xulq - atvor munosabati treningi muhim o'rin egallaydi. Chunki inson doimo atrofdagi kishilar bilan bevosita munosabatda bo'ladi, uni idrok etadi, axborot yetkazadi va oladi, ularni tushunishga harakat qiladi, perseptiv munosabatda bo'ladi.

U doimo guruh bilan bog'langan bo'ladi. Muloqot jarayonida turli kelishmovchiliklar, qiyinchiliklar vujudga kelishi va ularning oldini olishda trening muhim o'rinni egallaydi.

O'quvchilarning muloqotmandligini psixologik treninglar yordamida rivojlantirish mumkin. Buning uchun biz eng avvalo trening maqsadidan kelib chiqib quyidagi trening dasturi tuzib oldik va trening mashg'ulotlarini o'tkazish asossida tolerantlik xususiyatlarini shakllantirish mumkin.

"Assotsiatsiya" mashqi Mashqning borishi: O'quvchilar ishtirokida T-guruh tashkil etiladi. Guruh a'zolaridan biri ixtiyoriy ravishda tanlab olinadi. So'ng u qatnashayotganlarning ismini bir qatordan tartib bilan aytib chiqadi. U ismlarni shunday ohangda aytishi kerakki, bu ohang uning faqatgina nomini aytayotgan kishiga nisbatan munosabatini ifodalasin. Shundan so'ng u nimalarni his qilganligini tushuntirib beradi.

Keyin ishtirokchilarning har biri o'z ismini eshitgan chog'da qanday tuyg'ularni, yuksak kechinmalarning yuzaga kelishi haqida shaxsiy mulohazalarini bildiradilar. O'qituvchi va boshqa o'quvchilar ohang ifodalanishi, tempi, chastotasi, tembriga binoan shoshilmay, muloyim, do'stona, samimiy, iliq kayfiyat bilan olib boriladi.

“Assotsiatsiya” mashqi Ishtirokchilarda o'zaro hurmat, ishonch, qo'llab quvvatlash hissini shakllantirish, shuningdek muloqotning sirlari, maromi, jihatlarini qo'llash malakalari va ko'nikmalarini tarbiyalash maqsadida tashkil etiladi.

Mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda trening mashg'ulotlarini ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo'llashda bevosita faollikni oshirishga qaratilgan pedagogning kreativlik faoliyatini shakllantirishga qaratilgan usullardan biri e'tirof etishimiz mumkin.

Trening mashg'ulotlari ham talabalarni faollikka chorlaydi hamda ularda muloqotmandlik va tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, darsning boshlanishida, zerikish holatlarida, diqqatni to'plashda, qo'qqisdan fikr yuritish kabi faoliyatga undovchi qisqa muddatli (3-5daqiqalik) trening o'yinlardan foydanish yaxshi samara beradi. Xullas, yosh xususiyatlari nuqtai nazaridan turli ta'sirlarga beriluvchan bo'lganligi bois ularning sressga moyilligini diagnostika qilish va korreksiyalash ishlarini tashkil etish ta'lim faoliyatida yaxshi samara beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1- jild. – T.: O'zbekiston, 2018. – 295-b.
- 2.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. O'quv qo'llanma.- T.: Universitet, 1999 – 96 b.
- 3.Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002 – 205 b.
- 4.Karimova V., Berdiyev G. Murosa qilish odobi yoki konfliktlarni bartaraf etish mumkinmi? – T., 2003 – 44 b.